

**Do'stlik tuman axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati.**



1 aprel - Xalqaro qushlar kuni

**“Qushlarni asraylik!”
nomli kitobxonlarga bibliografik
tavsiyanoma.**



1 aprelda Butunjahon qushlar kuni nishonlanadi.

Bu sana qushlarni asrash, ularning tabiiy yashash muhitini muhofaza qilish va insonlarning tabiatga bo'lgan mas'uliyatini oshirish maqsadida belgilangan.

Xalqaro qushlar kuni nishonlanishining maqsadi:

- Qushlar va ularning yashash muhitini himoya qilishga e'tibor qaratish.
- Qushlarning ekotizimdagi rolini anglash.
- Insonlarning tabiatga bo'lgan mas'uliyatini oshirish.

Qushlar kuni har yili 1 aprelda nishonlanadi. Bu sana qushlarning janubdan o'z vatandoshlariga qaytish davriga mos keladi, bu esa ularning migratsiyasini himoya qilishga e'tibor qaratish uchun yaxshi vaqt hisoblanadi.

Bundan tashqari, qushlar bilan bog'liq ko'plab tadbirlar ham uyushtiriladi:

- Qushlar haqida ma'lumot berish va ularni himoya qilishni targ'ib qilish.
- Qushlarni kuzatish va ularni o'rganish.
- Qushlar uchun yashash muhitini yaxshilash.

Qushlar ekotizimning muhim bir qismi bo'lib, ularni himoya qilish ekologik salomatligimiz uchun zarur. Qushlar kuni bunday himoya qilishning muhim bir qismi hisoblanadi.



1 aprel' –xalqaro qushlar kuni: Qushlar haqida nimalarni bilasiz?

Qushlarning tana harorati odamnikiga nisbatan 7-8 darajaga yuqori. Ular terlamaydi.

Qushlarning yuragi parvoz paytida daqiqasiga 1000 marta, dam olish paytida esa bir daqiqada 400 marta uradi. Parvoz paytida laylaklar yerga cho'kmasdan uxlashi, kal burgut oyoqlarini yuqoriga ko'tarib, uchishi mumkin

Hajmi bo'yicha Tuyaqush eng katta qush bo'lib, bo'yi 2 metrdan oshadi.

Tuyaqushlar, kivilar, kazovarlar, dodoslar va pingvinlar ucha olmaydi. Kivining qanotlari, dumi ham yo'q, patlari esa junga o'xshaydi. Agar ichki a'zolari tuzilishi va tumshug'i bo'lmaganda, uni sut emizuvchilarga xos deb bo'lardi.

Qarg'alar inson nutqi va tovushlariga taqlid qila oladilar.

Umuman, qushlarning barcha turlari turli xususiyatlarga ega. Ona tabiatda ularning o'z o'rni bor.



Qushlar haqida qiziqarli ma'lumotlar!

1. Bugungi kunda odamlar Yer yuzida yashaydigan qushlarning 10 694 turini bilishadi.



2. Tuyaqush tuxumini qaynatish uchun uni 1,5-2 soat vaqt kerak bo'ladi.



3. Dunyoda umuman qanotlari bo'lmagan yagona qush - bu kivi.



4. Qushlarning tana harorati odamnikiga nisbatan 7-8 darajaga yuqori.



5. Parvoz paytida laylaklar yerga cho‘kmasdan uxlab qolishga qodir.



6. Qushlar terlamaydi.



7. Dunyodagi eng kichigi tuxum - qo‘ng‘ir qushga tegishli.



8.

9. Qushlarning patlari uning suyaklaridan og‘irroq.



10. Qushlarning yuragi parvoz paytida daqiqasiga 1000 marta, dam olish paytida esa 400 marta uradi.



10. Hajmi bo'yicha eng katta qush - 2 metrdan oshadigan tuyaqush.


11. Tuyaqushlar, kivilar, kazovarlar, dodoslar va pingvinlar ucha olmaydi.

12. Butun dunyoda zaharli qushlarning 6 turi mavjud.

13. Eng og'ir qush - dudaki.

14. Chumchuq eng "aqlli" qush hisoblanadi, chunki 100 gramm chumchuq massasiga 4,5 gramm miya to'g'ri keladi.

15. 26. Parvoz paytida kal burgut oyoqlarini yuqoriga ko'tarib, uchishni davom ettirishi mumkin.



*Qushlar uchib ketdilar,
Uzoq mamlakatlarga.
Yana ortga qaytishar,
Baxor kelsa bizlarga.*

*Ayni ko'klam paytida,
Ular qaytgan bo'ladi.
Sayroqi tovushlarga,
Butun olam to'ladi.*

*Xozircha, mayli, boring,
Kech qolmanglar safardan.
Manzilni «yozib» oling,
Shoshib qolmang qaytganda!*
Abdulla Pulatov

Bulbul haqida sherlar



*Mening ismim — bulbuldir,
Yoqtirgan narsam — guldur.
Azon payti sayrayman,
Sof xavoda yayrayman.
Sayraganimda gullar,
Menga tabassum yo'llar.
So'ng quyosh bo'lib paydo,
Sozimga bo'lar shaydo.
Nurini sochar, yonib,
Ovozimni qizg'onib.
Agarda sayrashimni,
Quvonib yayrashimni,
Eshitishni xoxlasang,
Iltimos, barvaqt tursang!*
Abdulla Pulatov

Qushlarning kelib chiqish tarixi.

Qushlar – umurtqali hayvonlardir. Trias davrida yashagan sudralib yuruvchilarning psevdosuxlar turkumidan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi. Ayrinchi morfologik belgilar (orqa oyoqlardagi muguz tangachalar, muguz tumshuq va boshqalar) hamda fiziologik xususiyatlari (tuxum qo'yishi)ga ko'ra qushlar



sudralib yuruvchilarga o'xshaydi, lekin tanasi pat bilan qoplanganligi tufayli ulardan farq qiladi. Patlar qushlar tanasida issiqlikni saqlaydi; uchishda havo qarshiligini kamaytirib, havoda ko'tarish yuzasini hosil qiladi (qanot, dum). Uchish va har xil harakatlanish (yugurish, suzish, sho'ng'ish)ga moslanish qushlar tayanch-harakat sistemasining o'ziga xos tuzilishiga sabab bo'lgan. Qanotlarning paydo bo'lishi bilan oldingi oyoqlar, yelka kamari suyaklari va muskullari shakllangan (ko'krak toj suyagi rivojlangan, uchish muskullari tana vaznining 25% ini tashkil etgan); yerda 2 oyoqda yurganida murakkab yaxlit tuzilgan dumg'aza va orqa oyoqlari muskullari qayta muvozanat saqlash vazifasini bajaradi. Qushlarning qovurg'alari o'zaro harakatchan qo'shilgan 2 qismdan iborat bo'lib, nafas olishda ko'krak qafasi hajmining o'zgarishiga, ya'ni elastikligi kam o'pka to'qimasi orqali havoni havo xaltalariga va naysimon suyaklar bo'shlig'iga o'tishiga yordam beradi. Qushlarda nafas olish jarayoni o'ziga xos kechadi. Qushlarning bronxlari havo xaltachalari bilan (9–10 tacha) tutashgan. Nafas olish havo o'pkadan xaltachalarga o'tayotganida va ulardan yana o'pka orqali qaytib chiqayotganida sodir bo'ladi. Havo xaltachalari termoregulyatsiyada ishtirok etadi; suvda suzuvchi qushlarda esa sho'ng'ishda tana tig'izligini o'zgartirishga imkon beradi. Ovqat xiliga moslanish qizilo'ngachning ixtisoslashuvi (ayrim qushlarda jig'ildonning rivojlanishi), muskulli oshqozonning paydo bo'lishi va ichakning uzayishiga olib kelgan. Qushlarning to'g'ri ichagi rivojlanmagan. Ayirish organlari 2 ta yirik buyraklar tana vaznining 1–2% ini tashkil etadi; qovug'i bo'lmaydi. Ichagi, siydik chiqarish va jinsiy bezlari sistemasi yo'li kloakaga ochiladi. Qattiq po'choq bilan qoplangan yirik tuxum qo'yishi tufayli qushlarning chanoqkamari suyaklari yiriklashgan. Qushlar narida 2 tadan urug'don va urug' yo'li, modasida faqat chap tuxumdon va tuxum yo'li rivojlangan (yapaloqqushlar va yirtqich qushlarda o'ng qismi ham bor). Urug'don va tuxumdonlar o'lchami jinsiy sikl davriga bog'liq. Masalan, uya qurish oldidan urug'donlar 300–1000 marta kattalashadi. Qon aylanish sistemasining tuzilishi va fiziologik xususiyatlari, yuragining nisbatan yirik bo'lishi va jadal ishlashi, yuqori qon bosimi moddalar almashinuvining tezlashuvi bilan bog'liq. Masalan, kolibri yuragi tana massasining 2,85% ini tashkil etadi; 1 daqiqada 1000 martagacha qisqaradi. Ko'rish o'tkirligi va rang ajrata olish yaxshi eshitish xususiyati qushlarning yaqin va uzoqdagi narsalarni tezroq tanib olishida, tur individlari va turlar o'rtasidagi munosabatlarda katta ahamiyatga ega. Qushlarning tovushlarni taniy olish va tovush chiqarish xususiyatlari rivojlangan. Bosh miya bazal yadrolarining rivojlanganligi, ko'rish bo'laklari va miyachaning yirikligi qushlar nerv faoliyatining sudralib yuruvchilarga nisbatan yuqori bo'lishiga olib kelgan. Qushlar muhit sharoitiga o'z ehtiyojiga qarab faol moslanish (uya qurish, oziq g'amlash va boshqalar) xususiyatlarga ega.

Qushlar quruqlik umurtqalilari orasida eng xilma-xil hayvonlar. Ular 2 kenja sinf: kaltakesak dumlilar (1 ta qirilib ketgan turkum kiradi) va yelpig'ich dumlilarga ajratiladi. Yelpig'ich dumlilarga 34 turkum (jumladan 28 ta hozirgi turkum) va 9000 ga yaqin tur kiradi.

Qushlar Arktikadan boshlab Antarktika sohalarigacha bo'lgan barcha tabiiy mintaqalarda, ko'pchilik (80% ga yaqin) turlari tropik mintaqalarda tarqalgan. O'zbekiston faunasida qushlarning 19 turkumga oid 440 dan ko'proq turi ma'lum.

Yashash joyiga binoan qushlarni bir necha yirik ekologik guruhlar, masalan, o'rmon qushlari, cho'l va dasht qushlari, suv havzalari (suvda suzuvchi) qushlar, botqoq va sohil qushlariga; ular hayotining yil fasllari bo'yicha o'zgarishiga binoan uchib ketuvchi, ko'chib yuruvchi va o'troq qushlariga bo'linadi. Qushlarning ko'payishi siklik tarzda jinsiy bezlarning fasliy rivojlanishiga muvofiq ichki (gormonal) va tashqi (kun uzunligi va boshqalar) omillar ta'siriga bog'liq. Qushlarning uya qurish joyi va uya qurish usuli xilma-xil. Qushlar 1 tadan 20–25 tagacha tuxum qo'yib, ularni 12 kundan 80 kungacha bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan jo'jalarning holatiga binoan Qushlar jish jo'ja ochuvchi qushlar va jo'ja ochuvchi qushlarga ajratiladi. Jish jo'ja ochuvchi qushlarning tuxumdan chiqqan bolasining ko'zi yumiqlik, patlari siyrak; jo'ja ochuvchi qushlarning tuxumdan chiqqan jo'jasi onasi orqasidan ergashadigan va mustaqil oziqlana oladigan bo'ladi.

Ahamiyati

Qushlarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati xilma-xil bo'lib, o'simliklarni changlantirish, ular urug'larini tarqatish, zararkunanda hasharotlar va kemiruvchilarni qirish (ular sonini boshqarish)dan iborat. Ayrim qushlar bog'lar va donli ekinlarga ziyon yetkazadi, yuqumli kasalliklar tarqatadi. Qushlar ovlanadi; bir qancha turlari xonakilashtirilgan. Qushlarning tabiatdagi *estetik* ahamiyati ayniqsa katta: ularning sayrashini bog' va xiyobonlarni jonlantiradi; insonda zavqlanish hissinu uyg'otadi.

Muhofaza qilish

Qushlarning turlari soni tobora kamayib bormoqda. XVII asr boshlaridan buyon 100 ga yaqin qushlar turi qirilib ketgan, bir qancha turlari yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Qushlarni muhofaza qilishga qadimdan harakat qilib kelinadi. Qadimgi Hindistonda miloddan 200 yil avval qushlar muhofazasi to'g'risida qonun mavjud bo'lgan. Hozirgi hamma mamlakatlarda qushlar muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Noyob va qirilib ketish xavfi ostidagi turlarni saqlab qolish maqsadida xalqaro mamlakatlar va regional Qizil kitoblar yaratilgan. Xalqaro konvensiya, bitim, memorandumlar tuzilgan. Maxsus fondlar tashkil etilgan. 1885-yil birinchi bo'lib qushlarni muhofaza qilish Audubon jamiyati tuzilgan. 1872-yil Yellowstone milliy bog'i (AQSH), 1910-yil Shveysariyada tabiatni muhofaza qilish jamiyati ish boshlagan. 1913-yil tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi xalqaro anjuman o'tkazilgan.

XX asrning 2-yarmidan boshlab qushlarning yashash joylarini saqlab qolishga e'tibor kuchaytirildi. Muhofaza qilish hududlari (milliy bog'lar, qo'riqxonalar) tashkil etila boshlandi. 1971-yil suv va botqoqlik hududlari muhofazasi bo'yicha

xalqaro konvensiya ishlab chiqildi. Qushlar muhofazasi bo'yicha xalqaro hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda


[tahrir | [manbasini tahrirlash](#)]

O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda „Biologik xilma-xillik to'g'risida“gi, 1997-yilda „Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risida“gi, 1998-yilda „Ko'chib yuruvchi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to'g'risida“gi, 2001-yilda „Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa, suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo'lgan suv botqoqlik joylar to'g'risida“gi konvensiyalarga qo'shildi. „Ingichka tumshuqli balchiqchi, Sibir turnasi ([oq turna](#)), [Afrika](#) – [Yevrosiyaning](#) suvda suzuvchi ko'chmanchi qushlarini muhofaza qilish tadbirlari yuzasidagi hamfirklik meleorandumlari“ kabi xalqaro bitimlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan.

Yer yuzidagi noyob qushlar



Yer yuzida 10 mingga yaqin qushlarning turi bor. Ular turli oilalarga mansub bo'lib, ko'rinishi, hajmi, harakatlari bilan ajralib turadilar. Quyida siz sayyoramizning noyob qushlari bilan tanishishingiz mumkin.



Kolibri-asalari

Yer yuzidagi eng kichik qush deb kolkibri-asalariqushi hisoblanadi. Bu qushlarning uzunligi tumshig'i va dumi qo'shib hisoblanganda bor-yo'g'i 5 sm ni tashkil etadi. Kolibrining og'irligi esa 1,6gr ni tashkil etadi. Hattoki tuyaqushning birgina pati ham bundan og'irroq. Biroq shunday jajji tanada ham yurak urib turadi va bir daqiqada 500 martagacha boradi. Kolibri qushi orqaga uchishni biladigan yagona qushdir. Uning qanotlarini bir daqiqada 90 marta qoqa oladi. Kolibri qushi juda harakatchan va jo'shqin hayot tarzini olib boradi. Bu qush yeb tu'ymasdir. Undagi moddalar almashinuvi shunchalik tezki, 16 soat ichida yuz martadan ortiqroq ovqatlanad iva suv ichadi, bu uning o'z og'irligidan ham ko'proqdir.



Yaltiroq Kettsal

Bu qush turi Janubiy Meksika hamda Panama taraflarda yashaydi. O'zining uzunligi 35 sm gat eng bo'lib, yana uzun dumsimon patlariham bor. Bunday go'zallik narlarda bo'ladi. Tepadan qaraganda qush metal yaltiroqli hamda tillarang tusli och yashil rangda ko'rinadi. Qorinchasi malina rangida, pastki tomondagi dumi esa oqdir. Bunday go'zal qush asosan okoteya mevalari bilan taomlanadi, biroq hasharotlardan, qurbaqa va kaltakesaklardan ham hazar qilmay, ularni ham yeyaveradi. Bu qush bir paytlar maya va atseklar qabilalari uchun muqaddas hisoblangan, uni havo hudosi deb hisoblaganlar. Patlaridan hattoki diniy marosimlarda ham foydalanganlar.



Goatsin

Goattsin qushlarining polaponlari shunisi bilan qiziqki, ularning qanotlarida chantallari (tirnoq) bo'lib, ular yordamida daraxt shoxlariga osilib oladilar, va hattoki daraxtlarda harakatlanadilar. Bu xususiyat ilk qushlarda bo'lgan va ulardan meros sifatida o'tgan. Biroq qush katta bo'lgan sayin bu xususiyat yo'qola boradi. Bu qushning go'shtini yeb bo'lmaydi, shuning uchun uni "sassiq" deb ataydilar. Lekin chiroyli ko'rinishi tufayli qush Gayana davlatining milliy belgisi hisoblanadi va gerbiga tasviri qo'yilgan.



Toporik

Aniqlanishicha, qushlar nafaqat havoda uchar ekanlar. Bu qushcha bu harakatini suvda ham bajara olar ekan. Toporik qushi qadimgi qushlardan bo'lib, ularning ilk ajdodlari 15 mln yil avval han yashaganlar. Tashqi ko'rinishidan bu qushlar pingvinlarga o'xshasada, ular bilan hech qanday qarindoshligi yo'q. Toporiklar yaxshigina suza ham oladilar va bunda qanotlaridan foydalanadilar va hattoki kichik baliqlarni tutib yeyish maqsadida 100 metrlik chuqurlikkacha ham tushishlari mumkin.

Dubulg'asimon tumshuqli kalao

Bu qush turi juda noyob bo'lib, uni Malay yarimorolida, Sumatra va Borneoda uchratish mumkin. Kalao karkidonsimon qushlar oilasiga mansub bo'lib, tumshug'i dubulg'asimon ko'rinishga egadir. Qushning boshi va dubulg'asimon tumshug'i tanasining 10% ni tashkil qiladi.

Jannat qushlari

Jannat qushlari xalq og'zaki ijodida afsonaviy obrasifatida gavdalanadi. Ular qo'shiqlar, afsonalar va qadimgi rivoyatlarda uchraydi. Aslida esa bu qushlar chindan ham mavjud bo'lib, Yangi Gvineya va Avstraliyada istiqomat qiladilar.

Kafrlik shoxli qarg'a

Bu qush karkidonsimon qushlar oilasiga mansub bo'lib, shoxli qarg'alar turigakiradi. Uni ekvatorning janubida, Afrika savannalarida uchratish mumkin. Bu qarg'a tutishi mumkin bo'lgan har qanday hayvonni tanavvul qilishi mumkin.

Sersoqol

Sersoqol nomli qush qirg'iylar oilasiga mansub bo'lib, soqollilarning yagona turidir. Bu yirik hajmli qush bo'lib, 95-125 cm ni tashkil qiladi. Og'irligi esa 7,5 kg ga teng, qanotlarini ochganda 308 sm gacha boradi. Sersoqol qushi Kichik hamda Markaziy Osiyoda, Sharqiy va Janubiy Osiyoda hamda Janubiy Yevropada uchraydi. O'rta Osiyoda bu qush boltayutar deb ataladi.

Nahangboshli qush

Bu qush laylaksimonlar oilasiga mansub bo'lib, ko'zlarining joylashishi bilan ajralib turadilar. Ko'zlar qush chanog'ining ikki yonida emas, balki chanoqning oldingi qismida joylashgandir. Shu sababli u hamma narsani katta hajmda ko'radi.

Janubiy Amerika garpiyasi

Bu qirg'iylar oilasiga mansub yirtqich qushdir. Nomidan ham ma'lum bo'lgandek, bu qushlar Markaziy hamda Janubiy Amerikada istiqomat qiladi. Ularning panjalari juda katta bo'lib, katta og'irlikni ham bimalol ushlay oladilar. Panjalarda uzun qora tirnoqlari bor.

Qora oyoqli mitti lochin

Bu dunyodagi eng mitti yirtqich qush bo'lib, uzunligi 15 sm, og'irligi esa 35 gr ga teng. Qora oyoqli mitti lochin Osiyoning Janubi-Sharqida ushraydi va eng jazzi yirtqich qush sifatida Ginnesning Rekordlar kitobiga kiritilgan.

Krachka-inka

Bu kulgili mo'ylovli dengiz qushlari Peru va Chili qirg'oqlari yaqinidagi qoyalarda yashaydilar. Ular baliqlarni yeydilar va mushukka o'xshab ovoz chiqaradilar. Krachlarning salobatli bu oq mo'ylovlarining har birining uzunligi 5 sm gacha bo'lib, aslida ular mo'ylov emas, qushning patlaridir.

Moviy oyoqli merov qush: Qushlarning yerdagi kulgili va beso'naqay yurishlaritufayli shunday nom bilan ataladilar. Biroq suvda bu qushlar umuman o'zgacha ko'rinadilar.

Internet manbalardan foydalanib tayyorlandi.

<https://ishonch.uz/uz/news/1-aprel-haloro-uslar-kuni-uslar-a>

<https://uzbaza.uz/qushlar-va-parrandalar-haqida-sherlar/>

https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_qushlar_kuni

<https://www.samdu.uz/uz/news/19872>

<https://www.samdu.uz/uz/news/19872>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Qushlar>